OGOHLANTIRISH!

Kredit bo‘yicha majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarmaslik:

– umumiy qarzdorlik miqdorining oshishiga;

– qarzni undirish bo‘yicha majburiy ijro choralarining ko‘rilishiga;

– kredit bo‘yicha yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun nomingizdagi mol-mulkka undiruv qaratilishiga, agarda mol-mulk sotilgandan tushgan mablag‘ qarzni to‘liq qoplashga yetmasa, qolgan qarzdorlik zimmangizda saqlanib qolishiga;

– undiruv uchinchi shaxs tomonidan garovga qo‘yilgan mol-mulkka qaratilishiga yoki qarzdorlikni qoplash majburiyatining kafil zimmasiga yuklatilishiga; – kafil yoki garovga qo‘yuvchi tomonidan qoplangan qarzdorlik summasining keyinchalik sizdan undirilishiga;

– hisobvaraqlaringizdagi mablag‘lar xatlanishiga;

– sudning yoki davlat ijrochisining qarori bilan O‘zbekiston Respublikasidan chiqish huquqingiz vaqtincha cheklanishiga;

– kredit tarixingizga salbiy ta’sir ko‘rsatib, kelajakda kredit olish imkoniyatingizni cheklanishiga olib kelishi mumkin.

“HAMKORBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKINING JISMONIY SHAXSLARGA TA’MINOTLI KREDITLAR AJRATISH TO‘G‘RISIDAGI OMMAVIY OFERTASI

Ushbu ommaviy ofertada “Hamkorbank” ATB (bundan keyin – “Bank”) tomonidan jismoniy shaxslarga barcha xizmatlarni ko‘rsatish, jumladan ta’minotli kreditlardan foydalanish haqidagi Shartnomaning umumiy shartlari mavjud (bundan keyin – “Oferta”). Ushbu ofertaning ajralmas qismi bo‘lgan Kredit turlarning umumiy shartlarida ko‘rsatilgan harakatlarning bajarilishi Mijozning ushbu Ofertada belgilangan shartlar, tartib va hajmda Shartnoma tuzishga to‘liq va so‘zsiz roziligini anglatadi. Ushbu oferta shartlari Mijoz tomonidan to‘liq qabul qilingandan so‘ng, agar bu ofertada shunday qoida nazarda tutilgan bo‘lsa, Mijoz Bank bilan ta’minotli kreditlar bo‘yicha Kredit turlarining umumiy shartlari va alohida shartlarini nazarda tutuvchi Kelishuv tuzish majburiyatini oladi.

Ushbu Oferta va uning asosida tuzilgan, Kredit turlarining umumiy shartlari va alohida shartlarini tashkil etadi.

Ushbu Oferta O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasiga asosan Bank tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan kredit shartnomalarning umumiy shartlarini o‘z ichiga olgan tizimli taklifdir.

Mazkur Oferta ilovalarida keltirilgan kreditlarning har biri bo‘yicha “kreditning Umumiy shartlari” va “kreditning aloxida shartlari” birgalikda yagona kredit shartnoma deb hisoblanadi. Mijoz tomonidan muayyan turdagi kredit tanlanganidan so‘ng, ushbu kredit bo‘yicha tuziladigan kreditning aloxida shartlari bayon qilingan shartnoma mijoz tomonidan imzolanganidan so‘ng umumiy va aloxida shartlar kuchga kiradi va shu vaqtdan boshlab taraflarning huquq va majburiyatlarini vujudga keltiradi.

Ushbu Oferta Bank xizmatlaridan foydalanish istagida bo‘lgan barcha jismoniy shaxslarga yo‘naltirilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 354, 358, 360, 367, 369 va

370-moddalari va boshqa moddalariga muvofiq Shartnoma tuzishga rasmiy ommaviy taklif hisoblanadi va Shartnoma tuzishni xohlovchi barcha jismoniy shaxslarga birdek qo‘llaniladi. Biroq ushbu Ofertaning ilovalari hisoblangan kreditlarning umumiy shartlari mijoz tomonidan mustaqil tarzda tanlanadi va tanlangan kreditning umumiy shartlarining ilovasi hisoblangan alohida shartlari mijoz va bank vakili tomonidan kelishilgan holda imzolanadi.

1. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

1.1. Ushbu shartnoma matni bo‘yicha keyingi o‘rinlarda uchraydigan barcha atamalar, agar kontekstdan boshqacha ma’no anglashilmasa ushbu bo‘limda bayon qilingan ma’nolarni anglatadi:

Ommaviy oferta – Bank tomonidan jismoniy shaxslarga ta’minotli kreditlar ajratish to‘g‘risidagi Shartnoma shartlarini o‘z ichiga olgan, Tizimlarda va Bankning korporativ veb-saytida joylashtirilishi lozim bo‘lgan hujjat.

Bank — “Hamkorbank” ATB Mintakaviy (yoki Universal) bank xizmatlari ofislari.

Ariza shakli — Kredit oluvchi/Birgalikda Kredit oluvchi shaxs tomonidan Bank xodimiga qog‘ozda yoki masofaviy aloqa kanallaridan foydalangan holda elektron shaklda taqdim etilgan, Arizachi/Kredit oluvchi/Birgalikda Kredit oluvchining to‘lovlilik qobiliyatini baholash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan kredit ajratish to‘g‘risidagi arizasi;

kreditlar – jismoniy shaxslar, shu jumladan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun ta’minotli chakana kredit mahsulotlari;

kredit turlari – mazkur ofertaning ajralmas qismi bo‘lgan kreditlarning turlari: ipoteka kreditlari, avtokreditlar, ta’lim kreditlari, iste’mol kreditlari va boshqalar.

kredit shartlari (alohida shartlari) — alohida shartlarni nazarda tutuvchi Kelishuvga asosan kredit ajratish muddati, yillik foiz stavkasi, miqdori, ta’minot turi, ajratish shakli va maqsadi.

2. Umumiy shartlar

2.2. Shartnoma doirasida Bank Mijozga ushbu Oferta shartlariga muvofiq alohida kelishuvlar tuzish imkoniyatini beradi.

2.2. Bir turdagi kredit bo‘yicha yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar yoki nizolar boshqa turdagi kredit shartnomalarining shartlariga yoki kuchiga ta’sir qilmaydi.

2.3. Mijoz tomonidan ushbu oferta quyidagi usullarning biridan foydalanishi va amalga oshirilishi mijozning ushbu Ofertaning barcha shartlarini istisnosiz to‘liq va so‘zsiz qabul qilish tasdig‘ini (aksept) anglatadi:

Mobil ilovada yoki/va veb ilovada ro‘yxatdan o‘tish, verifikatsiya va autentifikatsiya qilish;

Oddiy yozma imzolash, Yozma ariza taqdim qilish; elektron raqamli imzodan foydlangan holda ariza yuborish;

hujjatda hujjatni imzolagan shaxsning roziligini ifodalaydigan hamda uni identifikatsiya va autentifikatsiya qilish imkonini beradigan elektron tasdiqlash usullari (“SMS”, “Face-ID” va boshqalar) ham imzo sifatida tan olinadi;

Mijoz ushbu Oferta (shartnoma) shartlarini qabul qilishi (aksept qilishi) orqali, Bankka o‘zining Abonent raqamiga bank mahsulotlari, xizmatlari va aksiyalarini taklif qiluvchi SMS-xabarnomalar yuborilishi va reklama qo‘ng‘iroqlari amalga oshirilishiga o‘zining to‘liq va so‘zsiz roziligini bildiradi;

Qonunchilik yoki kelishuvda boshqacha hol belgilanmagan bo‘lsa, masofaviy aloqa vositalari (xat, faks, telefon va h.k.) orqali iroda ifoda etilgan hujjatlarni almashish yozma shakldagi bitimga tenglashtiriladi.

2.5. Mazkur ofertani Mijoz tomonidan tasdiqlanishi Mijozga ushbu oferta ilovalaridagi barcha xizmatlarni ko‘rsatish majburiyatini Bankka yuklamaydi. Mijoz ushbu ofertaning ilovalarida keltirligan qaysi xizmatdan foydalanish istagini bildirsa, Mijozga faqatgina tanlagan xizmati xizmat ko‘rsatiladi. Bunda Mijozga ushbu xizmat ko‘rsatish va yoki kredit ajratish jarayonida bank Mijozni bank ichki qoidalari va amaldagi qonunchilik hujjatlariga rioya qilgan

holda o‘rganib chiqadi.

2.6. Mijoz Ofertada ko‘rsatilgan kreditlarning o‘ziga kerakli kredit turini tanlab, unga Ariza taqdim etgan vaqtda, u faqatgina ushbu tanlangan kredit turining shartlariga qo‘shilgan hisoblanadi. Ofertadagi boshqa kredit turining shartlari ushbu muayyan bitimga nisbatan yuridik kuchga ega bo‘lmaydi.

2.7. Mijozning qo‘shilish arizasi 2.3-bandida ko‘rsatilgan usullardan biridan foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin.

2.7. Ushbu Ommaviy ofertaning biror-bir qoidasiga ozi bo‘lmagan taqdirda yoki uning noaniqligi bo‘lgan holatda, Mijozga uni qabul qilishdan bosh tortish va Bankning xizmatlaridan foydalanmaslik tavsiya etiladi.

2.8. Mijozga bank xizmatlari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me’yoriy hujjatlari, Bankning ichki qoidalari va Shartnomaga muvofiq ko‘rsatiladi.

2.9. Ommaviy oferta Mijozga ham qog‘ozda, ham ular bilan Bankning hamkorbank.uz rasmiy veb-saytida, hamda Mobil ilovasida tanishishni taklif qilish yo‘li bilan taqdim etilishi mumkin. Mijoz ofertani tasdiqlashdan oldin bepul uni tanishib chiqish uchun o‘zi bilan birga olib ketishi mumkin.

2.10. Mazkur oferta ilovalaridan bankning kreditlarning umumiy qoidalari keltirilgan. Ushbu Kreditlarning muddatlari, miqdori, foizlari va boshqa muxim shartlari alohida shartlarda belgilanadi.

2.11. Zarurat bo‘lganda, Bank Mijozga kelishmovchiliklar bayonnomasini yuborish huquqini o‘zida saqlab qoladiki, bu bank tomonidan kelishuv tuzish taklifi (oferta) hisoblanadi.

2.12. Mijoz kelishmovchiliklar bayonnomasi shartlarini qabul qilganda Kelishuv tuzilgan hisoblanadi.

2.13. Har bir alohida kredit turi bo‘yicha tuzilgan shartnoma FKning 360-moddasi (Qo‘shilish shartnomasi) tartibida quyidagi uchta hujjatning birligidan iborat Yagona Shartnomani tashkil etadi:

Mijoz tomonidan tanlangan muayyan kredit turining mustaqil Umumiy shartlari;

Mijozning ushbu muayyan kredit turlariga qo‘shilish to‘g‘risidagi Arizasi;

Kreditning miqdori, foizi va muddati, ta’minoitni va boshqalarni belgilovchi Alohida shartlar (ilovalari) va unga ilova qilingan hujjatlar.

2.14. Kredit ajratish to‘g‘risida ijobiy qaror qabul qilingandan so‘ng, Bank va Mijoz o‘rtasida kreditning muddati, miqdori, foiz stavkasi va boshqa xususiy shartlarini belgilovchi Alohida shartlar(ilovalari) to‘g‘risidagi Kelishuv tuziladi.

2.15.Alohida shartlarni imzolash Mijoz tomonidan oddiy yozma usulda imzolash orqali amalga oshiriladi.

2.16. Mijoz tomonidan tasdiqlangan Alohida shartlar (ilovalari) O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Mijoz tomonidan o‘z qo‘li bilan imzolangan hujjatga tenglashtiriladi va taraflar uchun yuridik majburiyatlarni keltirib chiqaradi.

BANK MANZILI VA REKVIZITLARI

To‘liq nomi: Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki.

Markaziy bankning 2021-yil 25-dekabrdagi 64-sonli litsenziyasi.

Yuridik manzil: 170119, Andijon shahar, Bobur shohko‘chasi, 85-uy.

E-mail: @hamkorbank.uz Bank rekvizitlari:

STIR: 200242936

Telefonlar: 0 (800) 1 200 200; 1809 (pullik), +998 (78) 150 91 25.